

XORAZM VOHASIDA MAHALLIY SHAROITDA TARVUZ YETISHTIRISH TEXNALO'GIYASI

S.M.Sadullayev.

Urganch Davlat Universiteti Meva- sabzavotchilik kafedrasini mudiri

M.M.Matyakubov.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch-doktoranti

H.G.Erkaboyeva. A.G.Erkaboyev.

Urganch Davlat Universiteti Meva- sabzavotchilik va uzumchilik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

. tarvuz, yer, ozuqa, mineral, kaliy, go'ng, iqlim, foiz, hosil, suv, sho'rlanish, foyda, urug'qator

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarvuzning mahalliy sharoitda ekishga tayyorlashlari va urug'ini ekishga tayyorlash ishlari haqida natijalar berildi. Tarvuz urug'ini ekishga tayyorlashda urug'ni qanday tayyorlanishi va yuqori unuvqanlikga erishish yo'llari haqida batafsil ma'lumot berildi. Tarvuzning o'suv davrida qanday o'g'itlash kerakligi haqida to'liq ma'lumot berildi. <http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Kirish. Tarvuzlar (*Citrullus*) turkumi. Bu turkum vakillari bir yillik va ko'p yillik o'simliklar bo'lib, poyalari o'rmalab o'sadi. Tarvuz Afrika va Osiyoning sahro va chala sahro hududlaridan kelib chiqqan. Bularning 7 ta turi ma'lum bo'lib, shundan 2 tasi madaniylashtirilgan.

1. Oddiy tarvuz (*C.vulgaris*). Tarvuzning barcha iste'mol qilinadigan navlari shu turga kiradi. MDH hududida Quyi Volga bo'yi, Ukraina, Moldaviya, Qrim, Kavkaz, va Markaziy Osiyoda ekiladi. Markaziy Osiyoda juda ko'p madaniy navlari yaratilgan. Ko'p uchraydiganlari Oq tarvuz, Ola tarvuz, Chinni tarvuz, Qora tarvuz, Qo'ziboy, Xaitqora, Mokki va boshqalar. Bular ko'p joylarda ekib o'stiriladi. Mahalliy xalq bularni mevasining shakliga, rangiga, urug'iga, etining xususiyati va mazasiga qarab bir-biridan oson farqlaydi.

2. Xashaki tarvuz (*C.colocynthis*). Bular ham bir yillik o'simliklar bo'lib, poyasi yog'on va yirik gulli bo'ladi. Mevasining mazasi bir oz taxir, eti qattiq bo'ladi. Lalmikor

xo'jaliklarida xashaki tarvuzdan yem-xashak sifatida foydalaniladi. Yana bir turi Kolotsint tarvuz (*C.colocynthis*) bo'lib begona o't sifatida uchraydi. Bu tarvuz Turkmanistonning Tajan vohasida va Qoraqum cho'llarining chekka joylarida uchraydi.

Dalani ekishga tayyorlash Kattaligi 1 ga yer maydoniga tarvuz yetishtirish ishlarini amalga oshirdik. Birinchi navbatda ekin ekiladigan yer maydonining tuproq tarkibi o'rganib chiqildi, qum aralsh tuproq bo'lib, avvalambor tuproq unumdorligini oshirish ishlarini amalga oshirildi, tuproqni yetarlicha oziq moddalar mineral o'g'itlar bilan to'yintirildi va yerga chorva mollari go'ngi, parranda go'ngi, sho'rlanishni pasaytirish uchun ishlatiladigan mineral oziq moddalar bilan tuproq boyitildi. Yerni har xil zararli o'simliklar va yovvoyi o'simliklardan tozalash ishlari amalga oshirildi.

Bahor faslida yerga ishlov berish yerni shudgor qilish, yerni ag'darish ishlarini shu kungacha tuproq yuzasiga olib kelgan organik mineral ozuqa moddalarini tuproq bilan aralshtirish ya'ni uni ag'darish, shugorlash ishlarini amalga oshirib yerga kerakli ishlov berish ishlarini amalga oshirildi. Yerni yetarli darjada bostirib sug'orish ishlarini amalga oshirildi. eng asosiysi barchasini tuproq bilan aralshtirib reaksiyaga kirishishi uchun sug'orish ishlarini amalga oshirish vaqtida suv bilan juda me'yor darajasida yerni sug'orish va oziq moddalarning, suvning va barcha organik moddalarning tezda singgib tetishi tufayli yaxshi natijaga erishildi.

Tadqiqot natijalari. Tajribada mikrobiologik pereparatlardan 15 kg ammiakli selitra. 17 kg ammofos va 7,5 kg kaliy xlor o'g'iti hamda 3-3,5 tonna organik o'g'itlardan qo'llanildi. Bundan tashqari bargidan ham Gummat Print va Roslin pereparatlar bilan oziqlantirish ishlari amalga oshirildi. Urug'larini ekishga tayyorlash oldidan o'stiruvchi moddalar bilan ivitish ayrim kasalliklarni oldini oldi. Ekinga kasalliklardan ildiz chirishi, fuzaroiz so'lish, un shudring, zararkunandalardan poliz biti (shirasi) o'rgimchakkana, oqqanot, qovun pashshasi katta zarar yetkazadi. Zararkunandalarga qarshi 10 sotix maydonga Mospilan 20% n.kuk. (25-30 g) va kasalliklarga qarshi Foliar BT 22,5% em, k (150ml), Kurzat R Nn.kuk.(200-250 g)yoki 1 foizli Bordo suyuqligini qo'llash amalga oshirildi. 60-70 litr suvga tayyorlanib aralashma purkaladi. Shundan olingan hosil 97,3% ni tashkil etgan bo'lsa, mexanik shikastlangan (shamol, turli hasharotlarga) oqqanot pashshasi bilan zararlanishning nazoratga nisbatan kamayishi terib olingan hosilda 97,3% ni va umumiy holda esa 95,6%ni tashlik qilgan.

Tarvuz urug'ini biostimulyatorlar moddaga solib uni 3 kun mobaynida urug'ni mineral oziq moddalar bilan to'yinishiga sharoit yaratildi. Bu ish uslubini amalga oshirishimdan maqsad, tarvuz urug'ini har xil tashqi ta'sirlardan himoya qilish xususan, hasharot, qush va kemiruvchi zararkunandalardan saqlash hamda urug' zararlanmasligi va urug'ni o'z vaqtida unib chiqishini ta'minlashga ushbu suyuq mineral oziq modda orqali erishildi. Agar tarvuz urug'ini ekishdan oldin uni ushbu biostimulyatorlar solib

qo'yilamsa va urug' olib kelingan payti hech qanday ehtiyot choralarsiz to'g'ridan-to'g'ri ekilsa, urug' unib chiqish foiz ko'rsatkichi pasayadi va 100% unib chiqishi kerak bo'lgan urug'ning atigi 30% i unib chiqadi va bu ekin ekish vaqtida sizning eng birinchi zararingiz bo'ladi va shu orqali yuqori darajada hosil olmasligingizga sabab bo'ladi.

Agar yuqoridagi usuldan foydalansangiz tarvuz urug'ini tez va 100% barchasi unib chiqish natijasiga erishiladi. Dala tajribasida shu usuldan foydalanildi va tuproqqa ekilgan tarvuz urug'lari barchasi bexato unib chiqishiga erishdim. Natija boshlanishiga a'lo darajada amalga oshdi. Bu ishlarni amalga oshirishdan oldin iqlim ko'rsatkichlariga etibor bergan holda amalga oshidim. Aholi dehqon bozorlariga yetishtirilib iste'molga chiqariladigan politelen ostiga ekiladigan tarvuzdan, 10 kun keyinnga surib tarvuz urug'ini ekdim. Tarvuz („dollar“- urug' nomi pishib yetilish vaqti 95 kun) unib chiqqach tevarak atroflarini yumshatish, chopiq qilish, har xil zararli, yovvoyi begona o'tlardan tozalash ishlarini amalga oshirdim. So'ngra tez-tez sug'orish ishlarini amalga oshirildi. Har bir sug'orish ishlarini 3 kun oralig'ida amalga oshiriladi. Tarvuz unib chiqqan vaqtdan boshlab uni bargdan oziqlantirib suspenziya qilish, o'simlik tomiriga zarar yetkazmagan hola yaqin ham uzoq ham bo'lmagan haolda 10 sm oralig'ida o'simlik ildiz orqali oziqlanish usulini amalga oshirib, o'simlikni qurib qolishidan saqlash, o'simlikni o'sish suratlarini tezlashtirilishida yaxshi palak yoyishida yordam beradi. Tarvuz halak yoygandan keyin suv berishdan oldin ariqlarga chorva mollari go'ngi parranda axlari tashlab chiqildi. So'ngra har 3 kunda sug'orish ishlari amalga oshirildi. Bu vaqt oralig'ida o'simlik palagini qurib qolmasligi uchun bargni qurt-qumirsqalar zarar yetkazmasligi uchun bargdan oziqlantirish, barg orqali suyuq biologik faol moddalarni sepish ishlarini amalga oshirildi. Tarvuz mevasi kattalshgani sari uning mevasiga zarar yetish xavfi ortadi, bunday vaqtlarda tarvuz mevasi pishmasdan oldin sarg'ayib qolmasligi va tarvuz hajmi normal holatda bo'lishi uchun tuproqda qattiq kesaklar bo'lmasligi, tarvuzni palak ostiga joylashtirib qo'yish yoki qurigan o'tlar bilan berkitib jaziramadan saqlash zarur. Hosilimiz ko'ngildagidek darajadaa yetilgach, mevasi juda mazali va inson sog'lig'iga zarar yetkazadigan mahsulot emas balki foydali va shirin hamda mehnat faoliyatimiz va sarflagan mablag'imizdan 5 baravar ortiq foyda olishga erishildi.

Xulosa. Tarvuz yetishtirishda eng avvalambor iqlim omillariga, tuproqning tarkibi va xosildorlik darajasiga katta e'tibor berish zarur. Agar ekin maydonining sho'rlanish darajasi yuqori bo'lsa, albatda tuproq tarkibini maxsus kimyo laboratoriyalarida tekshirish tuproq tarkibini o'rganish zarur hisoblanadi. Shu orqali tuproq tarkibiga qanday makro-mikro elementlar yetishmasligini oldini olib tuproqni kerakli ozuqa moddalari va yetarlicha sug'orish ishlarini amalga oshirish orqali yer maydonining tuproq unumdorligi oshirildi. Shu orqali ekiladigan tarvuz urug'laridan tortib to hosil

olgunga qadar ekin maydongiz kuchi ekilgan tarvuzga kuchli ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi. Vaholangki kutilgan natijaga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. Belolipov.I.V, Botanila va o'simliklar fizologiyasi'' o'quv qo'llanma.-Toshkent ,2007
2. T.E.Otononaqulov –Sabzavotchilik o'quv qo'llanma Toshkent-2010.
3. Ramatov, B. Z., Matyaqubov, M. M., & Bekchanov, X. Y. (2023). XORAZM VILOYATI SHAROITIDA QOVOQ URUG'INI UNUVCHANLIGINI O'RGANISH. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(19), 7-9.
4. Xakimboy o'g'li, B. O. (2023). QOVUNNING "OQ NOVOT" VA "ZARGULOBI" NAVLARI XOSILDORLIGIGA BIOSTIMULYATORLARNING TA'SIRI. Gospodarka i Innowacje., 36, 171-173.